

O'ZBEK SHE'RIYATIDA QUYOSH OBRAZI TALQINI

Xoshimova Gavxarbonu Begzod qizi,
Qarshi davlat universiteti 3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Abdullayeva Umida Abdukadirovna,
PhD, dotsent v.b.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18451307>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek she'riyatida quyosh obrazining tutgan o'rni, uning badiiy-estetik funksiyalari Muhammad Yusufning "Qora Quyosh" dostoni va Zulfiyaning "Quyoshli Qalam" dostonlari misolida tadqiq etildi. Tadqiqot davomida quyosh obrazining lirik qahramon ruhiyati, vatanparvarlik va hurlik g'oyalari bilan bog'liqligi ochib beriladi.

Kalit so'zlar: ramz, badiiylilik, obraz, milliy o'zlik, qahramon ruhiyati, metafora.

Аннотация. В данной статье исследуется роль образа солнца в узбекской поэзии и его художественно-эстетические функции на примере поэмы Мухаммада Юсуфа "Қора Қуёш" и поэмы Зулфийи "Қуёшли қалам". В ходе исследования раскрывается связь образа солнца с внутренним миром лирического героя, а также с идеями патриотизма и свободы.

Ключевые слова: символ, художественность, образ, национальная идентичность, духовное состояние героя, метафора.

Abstract. This article examines the role of the image of the sun in Uzbek poetry, its artistic and aesthetic functions, using the example of Muhammad Yusuf's epic poem "Qora Quyosh" and Zulfiya's poem "Quyoshli Qalam". The study reveals the connection of the image of the sun with the lyrical hero's spirit, patriotism and freedom.

Keywords: symbol, artistry, image, national identity, hero's spirit, metaphor.

Kirish. O'zbek adabiyoti va madaniyati tarixida quyosh shunchaki Quyosh tizimining markaziy jismi, qizigan plazma shari emas, balki hayot manbai, ezgulik timsoli va ilohiy nur ramzi sifatida alohida o'rin tutadi. O'zbek she'riyatida quyosh obrazini o'rganish adabiy tahlil bilan bir qatorda milliy tafakkur va dunyoqarashning ildizlarini tadqiq etish demakdir.

Badiiy adabiyotda ijodkor ijodiy niyatini ifodalash uchun turli obrazlar metaforasidan foydalanadi. Obraz tushunchasi keng ma'noda badiiy asarda tasvirlangan narsa-hodisalarni, manzara va holatlarni anglatadi [5.83] Shuning uchun quyoshni ham obraz sifatida olish mumkin. Quyoshning she'riyatimizdagi timsoli bo'yicha ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu obraz nafaqat tabiat fenomeni sifatida, balki inson qalbi, millatning ma'naviy uyg'onishi hamda tarixiy jarayonlarning ramzi sifatida ham faol ishlatilgan. Masalan, zamonaviy o'zbek she'riyatida quyosh timsoli hayot manbai, ruhiy yuksalish va umid ramzi sifatida talqin qilinadi. Shu bilan birga klassik va zamonaviy davr shoirlarining ijodida Quyosh obrazi mavhum falsafiy tushunchalar bilan bog'lanib, poetik matnda milliy-madaniy identifikatsiya, insoniy hissiyot va zamon ruhini ifodalash vositasi sifatida qatnashadi.

Adabiyotlar tahlili. O‘zbek adabiyotshunosligida badiiy obraz va ramzlar masalasi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, I. Adizovning Uvaysiy she‘riyati haqidagi tadqiqotida poetik tafakkur va ramziy obrazlarning badiiy funksiyalari keng yoritilgan bo‘lib, quyosh timsolining ma‘naviy-falsafiy mazmunini anglashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. O. Madayevning o‘zbek xalq og‘zaki ijodiga bag‘ishlangan asarida quyoshning mifologik va ramziy talqinlari haqida qimmatli mulohazalar bildirilgan. Shuningdek, Sh. Sulaymonov va Q. To‘xsanovlarning adabiyotshunoslik atamalariga oid lug‘ati ushbu tadqiqotda qo‘llanilgan nazariy tushunchalarni aniqlashtirishda muhim manba bo‘ldi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda qiyosiy-tahliliy, tarixiy-tipologik va badiiy matn tahlili metodlaridan foydalanildi. Muhammad Yusuf va Zulfiyaning dostonlaridagi quyosh obrazi kontekstual yondashuv asosida o‘rganilib, ularning ramziy va metaforik ma‘nolari ochib berildi. Shuningdek, obrazning lirik qahramon ruhiyati va davr ijtimoiy voqeligi bilan bog‘liqligi aniqlashda interpretatsion tahlil usuli qo‘llanildi.

Tahlillar va natijalar. Quyosh o‘zbek xalqi uchun qadimiy zardushtiylik e‘tiqodlaridan tortib, islomiy tasavvufgacha bo‘lgan davrlarda muqaddas ramz hisoblangan. Uni o‘rganish o‘zbek she‘riyatining “genetik” xotirasini ochib beradi. Tabiat va inson uyg‘unligini quyosh obrazi orqali ko‘rsatish yosh avlodda olamga nisbatan mehr va go‘zallik hissini uyg‘otadi.

Mumtoz shoirlar uni ko‘pincha oshiq va pir obrazi bilan uyg‘unlashtiradilar. “Avvalo quyosh – oshiq va to‘g‘ri yo‘ldan maqsad sari borayotgan pir, rahnamo ramzi. Oshiq va piring quyosh timsolida sintezlanishi uning mohiyatini chuqur anglash imkonini yaratadi... Zarralar – oftob; oshiq – yor demakdir. Ular hodisa va mohiyat sifatida yagonalikka, birlikka ega” [1.31–32]. Bu qarash quyosh obrazining ma‘naviy va falsafiy mazmun kasb etishini ko‘rsatadi. Shu ma‘noda, Alisher Navoiy baytlarida ham quyosh obrazi bevosita inson qalbining ichki olovi, oshiq iztiroblarining timsoli sifatida yuzaga chiqadi.

Mehr emas, ohim o‘tidin ko‘kka yetmish bir sharar,

Ayb emasdur gar desam: “Dam ursam aflok o‘rtanur”, –

baytini adabiyotshunos olim O. Madayev quyidagicha ta‘riflaydi: “Alisher Navoiy osmondagi quyosh aslida men – oshiq ohining bir uchqunidir. Agar rostmana dam ursam, oh cheksam, falak kuyib ketadi, demoqchi” [3.102].

Yangi o‘zbek she‘riyatida ham quyosh obrazi turli talqinda ifodalangan. Buni atoqli shoira Zulfiya va O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf ijodidagi dostonlar misolida ko‘rib chiqamiz.

O‘zbekiston xalq shoirasi, Hamza, Neru va Nilufar mukofotlari laureati Zulfiyaning “Quyoshli qalam” dostonida ulkan o‘zbek adibi Oybek hayotining ba‘zi lavhalari tasvirlangan, bu asar she‘riyat muxlislari uchun ajoyib tuhfadir. Oybek domla hayotining so‘nggi oylarida umr yo‘ldoshi Zarifa xonim va shoira Zulfiya bilan birgalikda

O‘zbekiston bo‘ylab safarga chiqishgan edi. Adibning Ona Vatan jamoliga maftun bo‘lib, Zarafshon bo‘yida kezganlari, qadim Buxoroda kechmish va kelajak xayollariga cho‘mgan paytlari shoirani hayajonga solganligi ushbu baytdan ham ma‘lum:

O‘z ko‘rkini ko‘rib tasvirlarida:

“Oybek ishlayapti!” – deydi asrlar!.. [4.1]

Muhammad Yusuf dostonidan farqli ravishda Zulfiya dostonidagi quyosh obrazi ijobiy ma‘noda qo‘llangan. Yozuvchi Oybekning qalami, metonimik ma‘noda uning asarlari, quyoshga tashbeh qilingan. Boshqacha qilib aytganda, quyosh obrazi ijodkor shaxsi va o‘lmas merosini ifodalovchi marzkaziy metafora hisoblanadi. Zulfiya asaridagi quyosh obrazi Muhammad Yusuf dostonidagi quyosh obraziga nisbatan ancha faol. “Qora quyosh” dostonida ikki o‘rinda quyosh tasvirini uchratsak, “Quyoshli Qalam” da o‘n bir o‘rinda uchraydi.

Naqadar fusunkor ko‘rilajak ko‘rk!

Damlar ham odimlar qaynoq kunduzga.

Ochiq derazadan yel bilan ko‘m-ko‘k

Osmon otiladi mashinamizga.

Bizning mashinamiz ufq va quyosh,

Yel-u yuraklarga kirishga shoshar.

Muazzam adibga safarda yo‘ldosh

Baxtidan quvonchim arshidan oshar.

Ushbu misralarda quyosh maqsad va intilish ramzi. Shoir mashina bilan quyoshni bir safga qo‘yadi. Bu yerda quyosh – yetib borilishi kerak bo‘lgan yuksak nuqta, yorug‘ kelajakdir. Parchada quyosh obrazi bevosita yonma-yon kelayotgan “muazzam adib” siymosi bilan bog‘lanadi. Adib bilan qilinayotgan safar quyoshli safar sifatida tasvirlanmoqda, ya‘ni quyosh safarda adibning yo‘ldoshi. Shoira uchun adibning yonida bo‘lish, uning taftidan bahramand bo‘lish demakdir. Quyosh statik holatda emas, balki “shoshayotgan”, “hayotga kirib borayotgan” faol obraz sifatida namoyon bo‘ladi.

Adib istagi-la to‘xtaymiz. Birdan.

Yer, quyosh, suv, havo bizni quchadi,

Daryo qo‘shig‘idan, yel shiviridan

Tandan yo‘l hordig‘i tunday ko‘chadi

Ushbu misralarda quyosh obrazi shunchaki uzoqdagi sayyora emas, balki inson bilan yaqin munosabatda tasvirlangan jonli obraz sifatida namoyon bo‘ladi. “Yer, quyosh, suv, havo bizni quchadi” misrasida quyosh hayotiy muvozanati ta‘minlovchi to‘rt asosiy unsur dan biri sifatida kelmoqda. Shoira quyoshga insoniy xususiyat – “quchoqlash” fe‘lini nisbat berish orqali tabiatni jonlantiradi. Bu esa o‘quvchida quyoshga nisbatan qadr donlik va yaqinlik hissini uyg‘otadi.

Yo‘l davom etadi. Adib yuzida

Quyosh chehrasidan ajib ro‘shnolik.

Ortida o'ltirib yirik ko'zida
Ilhom chaqmog'ini mumkin ko'rmoqlik.

Ushbu to'rtlikda Zulfiya quyosh obrazini Oybek (Adib) siymosi bilan shunchalik darajada uyg'unlashtirib yuborganki, natijada Inson-Quyosh kontseptsiyasi yuzaga kelib, quyosh inson tafakkuri va ma'naviy kamolotining metaforasi sifatida tasvirlangan. Oybekning yuzi quyosh kabi nurli ekanligi, uning qalbi pok va niyati pokizaligiga ishora qilinadi.

Adib uchdi juftin qanotga olib,
Quchdi og'ushiga sof osmon, quyosh.
Men birdan junjikdim huvillab qolib,
Ko'zgamas, halqumga qalqib keldi yosh.

Ushbu to'rtlikda dostonning oxirgi quyosh obrazi tasvirlangan. "Quchdi o'g'ushiga sof osmon, quyosh" misrasida quyosh – abadiy maskan ramzi. Adib bu dunyoni tark etar ekan, u zulmatga emas, balki yorug'likka, quyoshning bag'riga ketadi. Bu yerda quyosh — poklik va yuksaklik timsoli. Adibning ruhi o'zining tabiatiga mos bo'lgan nurli olamga (samoviy quyoshga) qovushmoqda.

Muhammad Yusufning "Qora Quyosh" dostoni o'zbek adabiyotidagi eng o'g'riqli mavzulardan biri – mustabid tuzum va qatag'on qurbonlari: Sulaymon Azimov, Qodiriy, Usmon Azim, Fayzulla Xo'jayev, Cho'lpon xotirasiga bag'ishlab yozilgan. Avvalo, diqqatimizni asar sarlavhasiga qarataylik. Dostonda quyosh obrazi 1937-yilgi dahshatli qatag'onlar fonida namoyon bo'ladi. Muallif dostonida quyoshga qora sifatini berish orqali o'sha davrdagi ijtimoiy tuzumning adolatsiz siyosatini tasvirlab beradi. Qora quyosh metaforasini nur sochmaydigan, aksincha insonlar taqdirini kuydirib, qoraytirib yuborgan tuzum ramzi deyishimiz mumkin. Asar davomida quyosh obrazi faqatgina doston so'ngida ikki o'rinda keltirilgan:

Menga juda aziz
Uning siymosi,
Bir qarasam,
Yo'qdek sira qiyosi
U bir bag'ri daryo,
Bir bag'ritoshdir,
U bir quyosh
Ammo – Qora quyoshdir! [2.28]

Bu misralar orqali shoir nafaqat ijtimoiy tuzum, balki shu ijtimoiy tuzumning boshida turgan insonni ham Qora quyosh sifatida tasvirlaganini anglashimiz mumkin. Muhammad Yusuf ushbu obraz orqali o'zbek xalqining soddaligi rahnamolarga ko'r-ko'rona ishonishning fojiali oqibatlarini ham ochib beradi. Xalq quyosh deb ishongan kuch aslida uning boshiga qora kunlar keltirganini shoir achchiq alam bilan tasvirleydi. Bundan

tashqari, bu obraz orqali shoir hayotning teskari aylanib qolgani, haqiqat egilganini va adolat quyoshi tutilganini ko'rsatadi.

Doston bir mahbusning (Akmal ismli qahramonning) maktubi bilan boshlanadi. Bu maktubdagi umidim "porloq va yuksak" degan jumlar doston oxiridagi fojia bilan to'qnashadi, ya'ni qahramon o'ldiriladi. Shu voqeadan kelib chiqib Qora quyoshni zindonlarda so'ngan buyuk is'tedodlar va aybsiz insonlarning tugallanmagan orzulari sifatida ham talqin qilish mumkin. U millatning eng yorqin quyoshlarini yutib yuborgan qora zulmatning ham ramziy ifodasidir. Qisqa qilib aytganda, "Qora Quyosh" – nurdan mahrum etilgan haqiqatdir.

O'zbek she'riyatining ikki yirik namoyandasi – Muhammad Yusuf va Zulfiya ijodida quyosh obrazi o'ziga xos badiiy-falsafiy yukka ega bo'lib, ularning qiyosiy tahlili quyidagi natijalarni ko'rsatdi: Muhammad Yusufning "Qora quyosh" dostonida quyosh obrazi an'anaviy ijobiy ma'nosidan chekingan holda (antiteza usulida) qo'llanilgan. ushbu asarda quyosh ijtimoiy-siyosiy fojia ramzi, mustabid tuzum davridagi adolatsizliklar, "tutilgan haqiqat" va millat oydinlarining qatag'on qilinishi "qora" sifati orqali ifodalangan. Zulfiyaning "Quyoshli qalam" dostonida esa quyosh obrazi klassik va gumanistik an'analarga sodiq qolgan holda talqin etilgan. Natijalar shuni tasdiqlaydiki, o'zbek she'riyatida quyosh obrazi dinamik xarakterga ega. Muhammad Yusufda u tarixiy haqiqatni fosh etuvchi vosita bo'lsa, Zulfiyada shaxsning buyukligini tasdiqlovchi badiiy mezondir. Har ikki ijodkor ham quyosh obrazi orqali millatning ma'naviy holatini – birida yo'qotishlar dardi, ikkinchisida esa merosning mangu yashashini aks ettirgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, har ikkala shoir quyosh obraziga turli rakurslardan qaraydi. Zulfiyada quyosh ezgulik nurini sochayotgan adib timsolini ifodalasa, M. Yusuf ijodida quyosh o'z xususiyatiga paradoksal holatda tasvirlanadi. Ya'ni, nur sochuvchi, olamga yorug'lik ulashish xususiyatini yo'qotib, qoralik taratayotgani tasviri. Bu tasvirdan insonlar quyoshga topingan kabi intilgan dohiysi o'zidan yorug'lik emas, qora nur, qora iz tarqatganini anglaymiz. O'quvchi har ikkala dostonidan ham davr ijtimoiy voqeligi haqida to'liq ma'lumotga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Adizova I. Uvaysiy she'riyatidagi poetik tafakkurning yangilanishi. diss. avtoreferati. – Toshkent, 2020.
2. Yusuf M. Qora Quyosh. Xurshid Davron kutubxonasi.
3. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010.
4. Zulfiya. Quyoshli Qalam. Toshkent: Kamalak, 1995.
5. Sulaymonov Sh., To'xsanov Q. Adabiyotshunoslik atamalarining qisqacha izohli lug'ati. "Buxoro" nashriyoti, 2009.